



UDK: 159.9(575.1)

Hasan SOBIROV,
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: h.sobirov@nuu.uz

Professor, f.f.d O' Tilavov taqrizi asosida

SOCIAL JUSTICE PARADIGM AND SOCIO-ONTOLOGICAL APPROACHES TO POVERTY REDUCTION

Annotation

The article analyzes the theoretical and philosophical foundations of the social justice paradigm and poverty reduction within the framework of Sustainable Development Goals (SDGs). The nature of poverty, its socio-economic and cultural factors are examined from a socio-ontological perspective. The article reveals the correlation between the UN 2030 Agenda for Sustainable Development and socio-economic reforms being implemented in Uzbekistan. The mechanisms of social justice in the Uzbekistan-2030 Strategy and their philosophical foundations are investigated. As a result of the research, inclusive, institutional and cultural-educational ways to eliminate poverty are proposed.

Key words: social justice, poverty reduction, sustainable development goals, socio-ontological approach, inclusive development, Uzbekistan-2030, social inequality.

ПАРАДИГМА СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ И СОЦИАЛЬНО-ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОКРАЩЕНИЮ БЕДНОСТИ

Аннотация

В статье анализируются теоретико-философские основы парадигмы социальной справедливости и сокращения бедности в рамках Целей устойчивого развития (ЦУР). С точки зрения социально-онтологического подхода изучена природа бедности, ее социально-экономические и культурные факторы. Раскрыта взаимосвязь между Повесткой дня в области устойчивого развития ООН на период до 2030 года и социально-экономическими реформами, осуществляемыми в Узбекистане. В статье исследованы механизмы социальной справедливости в стратегии "Узбекистан – 2030" и их философские основы. В результате исследования предложены инклюзивные, институциональные и культурно-образовательные пути преодоления бедности.

Ключевые слова: социальная справедливость, сокращение бедности, Цели устойчивого развития, социально-онтологический подход, инклюзивное развитие, Узбекистан-2030, социальное неравенство.

IJTIMOYIY ADOLAT PARADIGMASI VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA DOIR IJTIMOYIY-ONTOLOGIK YONDASHUVLAR

Аннотация

Maqolada barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasidagi ijtimoiy adolat paradigmasi va kambag'allikni qisqartirishning nazariy-falsafiy asoslari tahlil qilingan. Ijtimoiy-ontologik yondashuv nuqtai nazaridan kambag'allikning tabiati, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillari o'rganilgan. BMtning 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish kun tartibi bilan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'rtasidagi mutanosiblik ochib berilgan. Maqolada "O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi ijtimoiy adolat mexanizmlari va ularning falsafiy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida kambag'allikni bartaraf etishning inklyuziv, institutsional va madaniy-ma'rifiy yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, kambag'allikni qisqartirish, barqaror rivojlanish maqsadlari, ijtimoiy-ontologik yondashuv, inklyuziv rivojlanish, O'zbekiston-2030, ijtimoiy tengsizlik.

Kirish. Insoniyat tarixida ijtimoiy tengsizlik va kambag'allikni bartaraf etish doimo eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib, globallashuv jarayonlari bir tomondan iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy tabaqalanishni yanada kuchaytirdi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyoda kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashayotgan aholi soni 700 million kishidan oshadi[1]. Bu raqamlar ijtimoiy adolat paradigmasini nazariy va amaliy jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

BMTning 2015-yilda qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish kun tartibida birinchi maqsad sifatida kambag'allikni tugatish belgilangan bo'lib, ushbu maqsad nafaqat iqtisodiy o'lchamda, balki inson qadr-qimmatini, ijtimoiy huquqlar va tenglikni ta'minlash kontekstida ham ko'rib chiqiladi. "Hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili ijtimoiy adolat falsafasining bugungi global kun tartibidagi in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mazkur muammoni hal etishga alohida e'tibor qaratmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi[2] mamlakatni ijtimoiy adolatga asoslangan

barqaror taraqqiyot yo'liga yo'naltirish uchun asos vazifasini o'tamoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy adolatning ijtimoiy-ontologik asoslarini, ya'ni uning jamiyatdagi vujudga kelish tabiatini, ifodalanish shakllarini va amalga oshirish mexanizmlarini tadqiq etish ilmiy ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbari SH Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Kambag'allikni qisqartirish bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, kasbga tayyorlash va ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan kompleks vazifadir"[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy adolat konsepsiyasi o'z tarixiy taraqqiyotida turli falsafiy-nazariy yondashuvlar orqali shakllangan. Qadimgi Yunon falsafasida Platon "davlat" asarida adolatni ijtimoiy tartibning asosi deb ta'riflagan[4]. O'rta asrlarda Forobiy o'zining "Fozil shahar aholisining qarashlari" asarida inson manfaatini davlat siyosatining markaziga qo'ygan. Bu an'ana ijtimoiy-ontologik tahlilda hamon dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Zamonaviy falsafada Jon Roulzning ijtimoiy adolat nazariyasi muhim o'rin tutadi. Roulz o'zining "Adolat nazariyasi" asarida ikki asosiy tamoyilni ilgari suradi: birinchisi, barcha uchun teng asosiy erkinliklar, ikkinchisi, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar faqat jamiyatning eng zaif a'zolari manfaatini ta'minlagan

taqdirdagina oqlanadi[5]. Mazkur konsepsiya BMTning "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili bilan mazmunan uyg'unlashadi.

Amartya Senning "imkoniyatlar yondashuvi" kambag'allikni faqat daromad taqisligi sifatida emas, balki insonning o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlaridan mahrum bo'lishi sifatida ta'riflaydi[6]. Ushbu yondashuv BRMning birinchi maqsadini yanada chuqur tushunishga imkon beradi. Senning g'oyalari keyinchalik BMTning Inson rivojlanishi indeksini (HDI) ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek tadqiqotchilari orasida Usmanov M.SH. barqaror rivojlanish va inson huquqlari o'rtasidagi o'zaro aloqani falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilib, BRMlarni inson huquqlari shartnomalarining amaliy ifodasi deb baholaydi[7]. Shuningdek, Gerasimov A.V. barqaror rivojlanishni ijtimoiy filosofiyaning strategik maqsadi sifatida ko'rib, uning jamiyatdagi funksional ahamiyatini noosfera nazariyasi orqali asoslaydi[8]. Ushbu tahlillar ijtimoiy adolat masalasini nafaqat siyosiy, balki ontologik-falsafiy savolga aylantiradi: jamiyatda adolat o'zi nima, u qanday vujudga keladi va qanday saqlanadi?

Siyosatshunos olim, professor A. Muminov "O'zbekiston barqaror rivojlanish yo'lida" maqolasida mamlakatda BRMlarning milliy siyosatga integratsiyalashuvi jarayonini tahlil qiladi[9]. Mazkur tadqiqotlar kambag'allikni qisqartirishning institutsional mexanizmlari bilan bog'liq masalalarni yoritisa-da, uning ijtimoiy-ontologik jihatlari, ya'ni kambag'allikning jamiyatdagi vujudga kelish va tiklanish shartlari hali to'liq tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda dialektik, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Ijtimoiy-ontologik yondashuv metodologik asos sifatida tanlangan, zero ijtimoiy adolat va kambag'allikni tadqiq etishda ularning jamiyatdagi vujudga kelish tabiatini aniqlash birinchi o'ringa chiqadi. Ontologik nuqtai nazardan kambag'allik bu nafaqat moddiy mahrumlik holati, balki insonning ijtimoiy nishonga, ijtimoiy institutlar va imkoniyatlar tizimidan mahrum bo'lgan subyektda aylanish jarayoni. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Jahon bankining rasmiy hisobotlari asos qilib olingan. Normativ-huquqiy bazani o'rganishda kontent tahlil usulidan foydalanilgan. Shuningdek, falsafa va iqtisodiyotning chegaraviy masalalarini o'rganishda interdisciplinar yondashuv qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. BMTning 2030 kun tartibida surilgan "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyili zamonaviy ijtimoiy adolat falsafasining amaliy ifodasidir. Bu tamoyil faqat miqdoriy (necha foiz kambag'allik darajasi) emas, balki sifatiy (qaysi guruhlar rivojlanishdan chetda qolmoqda) yondashuvni talab qiladi. O'zbekistonda 2022-yil 21-fevralda Vazirlar Mahkamasining 83-son qarori bilan belgilangan 16 ta Milliy maqsad va 126 ta vazifa[11] mazkur tamoyilni milliy siyosatga tatbiq etishning amaliy ifodasidir. Ushbu maqsadlar orasida kambag'allikni 2030-yilga borib kamida ikki barobarga qisqartirish, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tizimli yaxshilash va mehnat bozorini rivojlantirish kabilar alohida o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2018 yildagi 12,3 foizdan 2023-yilda 11 foizga tushgan[12]. Bu ko'rsatkich ijobiy dinamikani aks ettirsa-da, mutlaq raqamlar hali ham

qariyb 3,7 million kishini tashkil etadi. Bundan tashqari, aholining daromad darajasi bo'yicha territorial va genderli tafovutlar ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan muammoli bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy tengsizlik ontologik nuqtai nazardan ijtimoiy tizimning tabiiy holati emas, balki ma'lum tarixiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllangan va institutlar orqali tiklanuvchi hodisadir. P. Burdyoning kapital nazariyasi[13] bu jarayonni tushuntirishda muhim analitik vosita bo'lib xizmat qiladi. Unga ko'ra, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va simvolik kapitallar notekis taqsimlanadi va bu taqsimlanish avloddan avlodga o'tadi.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tengsizlikning o'ziga xos jihatlari mavjud. Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi tafovut, xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirokining cheklanganligi, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot notekisligi bularning hammasi ijtimoiy adolatni ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida aholi daromadlarini oshirish, ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy ximoyani mustahkamlash kabi vazifalar mazkur tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy adolatni amalga oshirishning o'ziga xos mexanizmi mahalla instituti bo'lib, u an'anaviy jamoachilik qadriyatlarini zamonaviy ijtimoiy xizmatlar tizimi bilan bog'laydi. Mahalla nafaqat ma'muriy, balki ijtimoiy-madaniy birlik sifatida kambag'allikka qarshi kurash va ijtimoiy himoyada samarali vosita vazifasini o'taydi[14].

Bu jihat O'zbekistondagi ijtimoiy adolat paradigmasining ijtimoiy-ontologik o'ziga xosligini belgilaydi: global tamoyillar milliy madaniy-tarixiy zaminga ko'chirib, ijtimoiy ontologiyaning mahalliy tuzilmalari orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv ijtimoiy adolatni umumiy abstrakt tushuncha sifatida emas, balki har bir mahalladagi, har bir oiladagi amaliy hodisa sifatida ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi. Ijtimoiy adolat paradigmasi va kambag'allikni qisqartirish masalalarini tadqiq etishda ijtimoiy-ontologik yondashuv nafaqat analitik quvvat, balki praktik yo'nalis ham beradi. Kambag'allik bu tasodifiy holat emas, balki ijtimoiy tizimning ma'lum tuzilishi, institutsional munosabatlar va madaniy-tarixiy omillar natijasida vujudga keladigan va tiklanadigan hodisadir. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kambag'allikka qarshi samarali kurash uchun quyidagilar omillar hisobga olinishi zarur: birinchidan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'lechlarni birlashtirgan inklyuziv siyosatni yanada kuchaytirish; ikkinchidan, mahalla instituti kabi milliy ijtimoiy tuzilmalarni modernizatsiya qilish; uchinchidan, ijtimoiy tengsizlikning tarkibiy ildizlarini bartaraf etuvchi institutsional islohotlarni; to'rtinchidan, ayollar, yoshlar va nogironlar kabi xavfli guruhlar uchun maxsus maqsadli dasturlarni kuchaytirishdan iborat.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi ijtimoiy adolat mexanizmlari BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan mazmunan uyg'un. Biroq ijtimoiy ontologik nuqtai nazardan islohotlarning samaradorligi nafaqat qabul qilingan hujjatlar, balki ular naqadar aholining kundalik hayotiga o'tayotgani ya'ni ijtimoiy institutlar, tasavvurlar va amaliyotlar tizimiga kirib borayotgani bilan o'lchanishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. World Bank. Poverty and Inequality Platform. – Washington D.C.: World Bank, 2023. – <https://pip.worldbank.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. 11-sentabr 2023-yil. – <https://president.uz/uz/lists/view/6477>
3. Platon. Davlat. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019. – 416 b.
4. Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – 560 p.
5. Sen A. Development as Freedom. – New York: Oxford University Press, 1999. – 366 p.
6. Usmanov M.SH. Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlarini ta'minlash // Falsafa va huquq. – 2023. – №3. – 4–9 b.
7. Герасимов А.В. Философские основания концепции устойчивого развития России // Наука и искусство управления. – 2022. – №2. – С. 8–21.
8. Muminov A.G. O'zbekiston barqaror rivojlanish yo'lida // Falsafa va huquq. – 2023. – №2. – 14–19 b.
9. Шааб А. Философско-экономические аспекты обеспечения устойчивого развития // Экономические и социально-гуманитарные исследования. – 2017. – №3(15). – С. 68–72.
10. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son qarori "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to'g'risida". – <https://lex.uz/docs/5873508>
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Aholi turmush darajasi. – Toshkent: Statistika, 2024. – <https://stat.uz>
12. Bourdieu P. The Forms of Capital // Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood, 1986. – P. 241–258.
13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 108 b.